

IX-XIII ASRLARDA XORAZM ZARGARLIK SAN'ATI TARIXI

Saparbayeva Aziza Asror qizi

Urganch davlat universiteti tarix fakulteti tarix ta'lim yo'nalishi

2-bosqich talabasi

azizasaparbayeva13@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada IX-XIII asrlarda Xorazm zargarlik san'ati tarixiga oid ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilishga harakat qilindi. Bu davr islom dinining kirib kelish jarayoni va qadimiy diniy e'tiqodlar bilan bog'liq san'atning uyg'unlashuvini ko'rsatishga e'tibor berildi.*

***Kalit so'zlar:** Beruniy, islamiy, feruza, toj, igna, marvarid, yoqut, sadaf.*

***Аннотация:** В данной статье предпринята попытка изучить и проанализировать сведения по истории ювелирного искусства Хорезма в IX-XIII веках. В этот период внимание уделялось показу процесса внедрения ислама и гармонии искусства, связанного с древними религиозными верованиями.*

***Keywords:** Beruni, Islamic, turquoise, crown, needle, pearl, ruby, mother of pearl.*

***Abstract:** In this article, an attempt was made to study and analyze information on the history of Khorezm jewelry art in the IX-XIII centuries. In this period, attention was paid to show the process of introduction of Islam and the harmony of art related to ancient religious beliefs.*

***Ключевые слова:** Беруни, исламский, бирюза, корона, игла, жемчуг, рубин, перламутр.*

Kirish. Arxeologik adabiyotlarda qayd qilingan ma'lumotlarga ko'ra, Daryaliqko'l soyi hududidagi aholi turar – joylari xilma – xil vazifada ishlatiladigan munchoqlar olingan. Y.A.Rapoport Shohsanamdan silindr shaklida munchoq va disk shaklida taqinchoqlar olishga muyassar bo'lgan. Gurganch shahrida Toshqal'a uy – xonalaridan rangi xilma – xil, vazifasi bir – birini takrorlamaydigan munchoqlar olishgan.

Asosiy qism. IX - XIII asr boshlarida zargarlik san'atiga islom dini ta'sirini hali hayvonlar va tabiat tasvirini saqlab qolgan «islamiy» girixli naqshlarning ko'payib borishi tasdiqlaydi. Islom dini kirib kelishining dastlabki davrlarida bu yerda shu paytgacha hukm surib kelgan jonli mahluqot tasviri bilan bezash o'z o'rnini saqlab qolgan. Shuningdek, aholi san'atining ildizida shu qadar aniqlik, erkinlik va holislik turadiki, uni yangi diniy qarashlarga butunlay bo'ysundirishning iloji yo'q edi. Mavjudotlarni ifoda etish badiiy uslubi o'zgarib, ular arabiy yozuvli naqshlar bilan birikkan bo'lsada, haligacha an'anaviyligicha qolmoqda edi. O'sha san'at turlari sifatida bizga tumorlar, kamarlarning ayrim qismlari yetib kelgan bo'lib, ular va kumushdan, hayvon, qush, baliq, afsonaviy mahluq, ilon boshiga o'xshab yasalgan bilaguzuklar shaklida yasalgan. Barchalariga har xil yomonliklardan saqlovchi, yaxshilikga yetaklovchi, savob, baxt - saodat keltiruvchi kabi xususiyatlarga ega degan qarashlar mavjud bo'lgan. O'sha davr uchun arabiy yozuvli naqshlardan foydalanish yangilik bo'lib, ular bilan tirik tabiatning tasvirlarini bezaganlar. Husnixatlar ham ezgulik ma'nosini bildirib, kuch - qudrat, sahiylik, davlat, tinchlik, baxt, shon-shuhrat, sog'lik va boshqalarni anglatgan. Bezatilgan tasvirlarning va yozuvlarning muqaddasligi bir – birini inkor qilish u yoqda tursin aksincha, turli diniy tasavvurlarning maxsuli bo'lishiga qaramay, bir – birini to'ldiradi.

X – XII asrlarga ta'luqli zargarlik namunasi bo'lgan ilon shaklidagi burama kumush bilaguzuklarning shakli ham jonli mahluqot ramzi bilan bog'liqdir. Qadim zamonlardan Sharqda ilonga yaxshilik belgisi deb qarashgan. U xonadon, boylik, yer osti ma'danlari, qablarning posboni degan qarash mavjud bo'lgan.

XIII asrda Xorazmda uchlari yo‘lbars boshiga o‘xshatib ishlangan bilaguzuklar ayollarning serfarzandligini bildirgan, bola – chaqalarni turli yovuzlikardan asrovchi homiy hisoblangan. X asrda Abu Rayhon Beruniyning tojlar haqidagi so‘zlari diqqatga sazovor: «Zodagon va oddiy kishilardan o‘zini yuqori ko‘rsatish uchun toj va maxsus bosh kiymlari kiya boshladilar». Quloq, tish, tirnoq tozalagich kabi turli pardoz – andoz buyumlari mayda qushlar tasviri bilan bezatilgan. Bunday buyumlarni yasashda odamlar ularga ko‘proq oro berish vositasi deb qarashi hisobga olingan. Natijada badiiy ishlov berilgan pardoz buyumi zeb – ziynat buyumiga aylangan. Ular ko‘ylakga to‘g‘nab qo‘yilib, doim egasining yonida bo‘lgan. Qadimda igna yasash ancha murakkab ish bo‘lib, uni juda ehtiyot qilib saqlaganlar. Ignalar uchun maxsus igna xalta tayyorlangan. Bu xaltalar chiroyli qilib ishlangan bo‘lib, ko‘krakga taqinchoq sifatida osib yurilgan va ignani olish qulay bo‘lgan. Bu ham zeb – ziynat, ham balolardan saqlovchi buyum vazifasini bajargan. G‘oyat bejirim ishlangan naqshinkor, baland gardishlariga o‘rnatilgan yirik feruza ko‘zli uzuklar kishilar orasida alohida qiziqish uyg‘otadi. Abu Rayhon Beruniyning yozishicha feruza g‘alaba, baxt – saodat, tantana, omad, farovonlik sifatini bildiruvchi tosh bo‘lgan. Musulmonlarda feruza, marvarid, zumrad va boshqa toshli zargarlik buyumlari nihoyatda qadrlangan. Ular inson uchun faqat bezak buyumlari bo‘lib qolmay, balki sog‘lik uchun ijobiy ta’sir etgan:

- **Marvarid** - inson organizmini mustahkamlaydi, yurakdagi tushkunlik va istirobni haydaydi, ko‘rish qobiliyatini oshiradi, jinlardan saqlaydi, og‘izdagi qo‘lansa hidlarni yo‘qotadi, oshqozondagi toshlarni maydalaydi.

- **Sadaf** - Sharqda ham Yevropada ham yuqori baholangan. Undan tog‘nag‘ich, baldoq, marjonlar, igna, tugmalar yasalgan. Uni qadimda oshiqalar mahbubasiga sovg‘a qilgan. Uni taqqan kishini ajin hamda sepkillardan asragan, zehnni ravshan qilgan, kishini bardam, ruhiyatini ko‘targan.

- **Yoqut** - vaboni daf qiladi degan aqida ham bo‘lgan. Undan oybaldoq ko‘rinishidagi isirg‘a va boshqa taqinchoqlar yasalgan. Rangli toshlardan egasining ismi sharifi bitib yozilgan muxr uzuklar maxsus tayyorlanar edi. Rivoyatlarda

aytilishicha, Muhammad payg‘ambarning uzukiga «Bari o‘tadi» degan yozuv naqshlangan ekan. Zangori rangli shisha munchoqlar, kambag‘allar uchun feruza o‘rnini bosib, taqinchoq sifatida foydalanilgan.

Xulosa. IX-XIII asrlarda tayyorlangan har xil tuzulishdagi shisha munchoqlar kishida qiziqish uyg‘otadi. Shisha qorishmasidan tayyorlangan munchoqlar zargar ustalar tomonidan ajoyib mohirona tayyorlangan. Unda tayyorlangan bu taqinchoqlar yaltiroq ko‘rinishga ega bo‘lib, badiiy jozibasi juda baland bo‘lgan.

Shu besh asr davomida aholi hayotida dastlabki e‘tiqod bilan bog‘liq san‘at va islomiy bezaklar uyg‘unlashuvi, bir – birini to‘ldirishi yuz berdi. Husnixat san‘atining zargarlik bilan birga rivoj topishiga olib keldi. Shu bilan birga aholi orasida turli zargarlik toshlari va yozuvni muqaddasliga hamda ezgulikka boshlashiga ishonch yanada mustahkamlandi. Zargarlik buyumlariga yangicha ishlov berish jarayoni kuchaydi. IX-XIII asr zargarlikning yana bir pog‘ona yuksalishiga olib keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. National Uzbek Clothes of Khorezm XIX – XX centuries, Naphisa Sodikova.
2. Ўзбеклар (Анъанавий хўжалиги, турмуш тарзи ва этномаданияти), Исо Жабборов.
3. Ўзбек халқ амалий безак санъати, Шохалил Шоёкубов.
4. “Танланган асарлар”, Абу Райхон Беруний, 1-жилд.
5. <https://khivamuseum.uz/uz/xorazm-zargarlik-tarixi>.